YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI
ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК
REVIEW OF LAW SCIENCES

huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

правовой научно-практический журнал

legal scientific-practical journal

2024-yil 1-son

VOLUME 8 / ISSUE 1 / 2024

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2024.8.1.

ISSN 2181-919X

E-ISSN 2181-1148

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS

Crossref Content Registration

TAHRIR HAY'ATI

I. RUSTAMBEKOV
Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.v.b., yuridik fanlar doktori, professor – bosh muharrir

B. XODJAYEV
Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, yuridik fanlar doktori, professor – bosh muharrir o'rinbosari

O. CHORIYEV
Tahririy-nashriyot bo'limi boshlig'i – mas'ul muharrir

A. SAIDOV
Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazining direktori, yuridik fanlar doktori, professor

EDVARD JUCHNIEWICZ
Polshaning Gdansk universiteti Huquq va boshqaruv fakulteti Moliyaviy huquq kafedrasi professori, huquq doktori

AMMAR YOUNAS
TDYU Biznes huquqi kafedrasi o'qituvchisi

O. OKYULOV
TDYU Fuqarolik huquqi kafedrasi professori, yuridik fanlar doktori

J. NEMATOV
TDYU Ma'muriy va moliya huquqi kafedrasi professori v.b., yuridik fanlar doktori

SH. ASADOV
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi Davlat tuzilishi va boshqaruvining huquqiy asoslari kafedrasi professori v.b., yuridik fanlar doktori

M. AMINJONOVA
O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi Qonunchilik ijrosi ustidan nazoratni tashkil etish kafedrasi dotsenti, yuridik fanlar doktori

M. RAHIMOV
TDYU Mehnat huquqi kafedrasi dotsenti v.b., yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

O. NARZULLAYEV
TDYU Ekologiya huquqi kafedrasi professori, yuridik fanlar doktori

B. MURODOV
O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi Tergov faoliyati kafedrasi boshlig'i, yuridik fanlar doktori, professor

A. MUXAMEDJANOV
TDYU Xalqaro huquq va inson huquqlari kafedrasi professori, yuridik fanlar doktori

N. NIYAZOVA
TDYU O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI
huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК
правовой научно-практический журнал

REVIEW OF LAW SCIENCES
legal scientific-practical journal

"Yuridik fanlar axborotnomasi – Вестник юридических наук – Review of law sciences" huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2020-yil 22-dekabrda 0931-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro'yxatiga kiritilgan.
Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko'paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

ISSN 2181-919X
E-ISSN 2181-1148
© Toshkent davlat yuridik universiteti

MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI VA TARIXI. HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

5 **ISMAILOV BEKJON SALIXOVICH**
O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari va imtiyozlarining funksional imkoniyatlari hamda ularning yuridik tahlili

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

17 **HOSHIMXONOV AHRORXON MUMINOVICH**
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi: o'zaro munosabatlarning yangicha tartibi

25 **ERGASHEV IKROM ABDURASULOVICH**
Soliq intizomini ta'minlashda davlat soliq xizmati organlari ishtirokining huquqiy asoslarini takomillashtirish

36 **MAXMUDOV FIRUZ BAXTIYOR O'G'LI**
Zamonaviy davlat boshqaruvi va davlat fuqarolik xizmatining nazariy-huquqiy jihatlari

12.00.06 – TABIIY RESURSLAR HUQUQI. AGRAR HUQUQ. EKOLOGIK HUQUQ

48 **NURULLAYEV SHOXRUX SHUXRATILLAYEVICH**
Qurilish sohasida ekologik yuridik javobgarlik

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI. HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI OLISH. KRIMINOLOGIYA. JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

57 **KAMALOVA DILDORA GAYRATOVNA**
Jinoyatga suiqasd qilishdan ixtiyoriy qaytishga oid konseptual qarashlar

67 **MIRZARAIMOV SARDOR TAXIROVICH**
Bezorilik huquqini qo‘llash muammolari

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI. KRIMINALISTIKA, TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA SUD EKSPERTIZASI

84 **САБЫРБАЕВА АЙНУРА БАХЫТ КЫЗЫ**
Новые способы отмывания денежных средств при совершении киберпреступлений

96 **MAXMUDOV SUNNAT AZIM O‘G‘LI**
Reabilitatsiya asoslariga ko‘ra jinoyat ishini tugatishning ayrim jihatlari

E-ISSN 2181-1148
ISSN 2181-919X

DOI: https://dx.doi.org/10.51788/tsul.rols.2024.8.1./RKJT1009
UDC: 343(045)(575.1)

REABILITATSIYA ASOSLARIGA KO‘RA JINOYAT ISHINI TUGATISHNING AYRIM JIHATLARI

Maxmudov Sunnat Azim o‘g‘li,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Jinoyat-protsessual huquqi kafedrasi o‘qituvchisi
ORCID: 0000-0002-5397-4736
e-mail: s.maxmudov@tsul.uz

Annotatsiya. *Ushbu maqolada sud-huquq islohotlarini amalga oshirish bosqichida jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchilik normalari asosida jinoyat ishini reabilitatsiya asoslariga ko‘ra tugatishning o‘ziga xos jihatlari hamda ushbu asoslarga ko‘ra ishni tugatishda yuzaga keladigan ayrim muammolar tahlil etilgan. Maqolada olimlarning jinoyat ishini reabilitatsiya asoslari bo‘yicha tugatishda ilgari surgan qarashlari orqali ushbu institutning qo‘llanish doirasi o‘rganildi. Olimlarning qarashlari va ilgari surgan g‘oyalaridan kelib chiqqan holda, jinoyat ishini reabilitatsiya asoslariga ko‘ra tugatish ilmiy, nazariy, amaliy va qonunchilik normalari orqali tahlil etildi. Shuningdek, maqolada reabilitatsiya asoslariga ko‘ra jinoyat ishini tugatishning surishtiruv va dastlabki tergovni tamomlashdagi o‘rni va ahamiyati, uning o‘ziga xos jihatlari, jinoyat protsessual qonunchilik va sud-tergov amaliyotida yuzaga kelayotgan ayrim muammolar tahlil etildi. Maqolada olimlarning reabilitatsiya asoslariga ko‘ra jinoyat ishini tugatish asoslari bo‘yicha bergan fikrlarini qiyosiy tahlil qilish, ularning bergan ta’riflaridagi tushunchalarni qonunchiligimizga asosan ko‘rib chiqish orqali jinoyat ishini tugatish asoslari turli mezonlar asosida alohida tasniflandi. Tahlil natijalari yuzasidan, jinoyat protsessida reabilitatsiya asoslari bo‘yicha jinoyat ishini tugatish institutini takomillashtirish yuzasidan tegishli xulosalar, taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.*

Kalit so‘zlar: *javobgarlik, jinoyat ishini tugatish, jinoyat ishini tugatish mezonlari, reabilitatsiya, reabilitatsiya qilinmaydigan asoslar, jinoyat tarkibi, javobgarlikka tortish muddati, yarashuv.*

НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ ПРЕКРАЩЕНИЯ УГОЛОВНОГО ДЕЛА ПО ОСНОВАНИЯМ РЕАБИЛИТАЦИИ

Махмудов Суннат Азим угли,
преподаватель кафедры «Уголовно-процессуальное право» Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация*. В данной статье анализируются специфические аспекты прекращения уголовного дела по основаниям реабилитации на основе норм уголовного и уголовно-процессуального законодательства на этапе реализации судебно-правовой реформы, а также некоторые проблемы, возникающие при прекращении уголовного дела по этим основаниям. В статье сфера применения этого института исследуется через взгляды учёных на оправдание в уголовных делах по основаниям реабилитации. Исходя из взглядов и представлений учёных, прекращение уголовного дела по основаниям реабилитации анализировалось с помощью научных, теоретических, практических и законодательных норм. Также в статье проанализированы роль и значение прекращения уголовного дела по основаниям реабилитации на этапе окончания дознания и предварительного следствия, его специфика, некоторые*

проблемы, возникающие в уголовно-процессуальном законодательстве и судебно-следственной практике. В статье проведён сравнительный анализ мнений учёных прекращении уголовного дела по основаниям реабилитации, рассмотрены понятия, содержащиеся в приведённых ими определениях, исходя из отечественного законодательства основания прекращения уголовного дела были выделены в отдельную классификацию на основе различных критериев. По результатам анализа разработаны соответствующие выводы, предложения и рекомендации по совершенствованию института прекращения уголовного дела в уголовном процессе по основаниям реабилитации.

Ключевые слова: *ответственность, прекращение уголовного дела, критерии прекращения уголовного дела, реабилитация, не реабилитируемые основания, состав преступления, срок давности, примирение.*

SOME ASPECTS OF TERMINATION OF A CRIMINAL CASE ON GROUNDS OF REHABILITATION

Maxmudov Sunnat Azim ugli,
Lecturer of the Department of Criminal Procedural Law,
Tashkent State University of Law

Abstract. *This article analyzes specific aspects of the termination of a criminal case on rehabilitation grounds based on the norms of criminal and criminal procedural legislation at the stage of implementation of judicial and legal reform, as well as some problems that arise when terminating a criminal case on these grounds. The article explores the scope of application of this institution through the views of scientists on justification based on the basics of rehabilitation in criminal cases. Based on the views and ideas of scientists, the termination of a criminal case on rehabilitation grounds was analyzed using scientific, theoretical, practical and legislative norms. The article also analyzes the role and significance of termination of a criminal case on the grounds of rehabilitation at the stage of completion of the inquiry and preliminary investigation, its specifics, some problems arising in the Criminal Procedure Legislation and judicial investigative practice. The article carries out a comparative analysis of the opinions presented by scientists on the grounds for termination of a criminal case on rehabilitation grounds, considers the concepts contained in the definitions given by them, based on our legislation, the grounds for termination of a criminal case were separated into a separate classification based on various criteria. Based on the results of the analysis, relevant conclusions, proposals and recommendations were developed to improve the institution of termination of a criminal case on the basics of rehabilitation in criminal proceedings.*

Keywords: *responsibility, termination of a criminal case, rehabilitation, release from liability termination of a criminal case on non-rehabilitating grounds, non-rehabilitating grounds, elements of the crime, statute of limitations for liability, reconciliation.*

Kirish

Ma’lumki, sud-huquq islohotlarini amalga oshirish jarayonida jinoyat-protsessual qonunchiligini liberallashtirish hamda takomillashtirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur vazifani amalga oshirish hamda jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirishning yangicha ustuvor yo‘nalishlarini ishlab chiqish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi PQ–3723-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish konsepsiyasi qabul qilindi. Mazkur konsepsiyada jinoyat va jinoyat-protsessidagi ayrim institutlarni takomillashtirish vazifasi belgilangan edi. Xususan, reabilitatsiya institutini qo‘llash aso-

slarini va uni amalga oshirish mexanizmlarini ham takomillashtirish muhim vazifalardan biri sifatida belgilandi.

Shunga ko‘ra, jinoyat-protsessida “reabilitatsiya asoslariga ko‘ra jinoyat ishini tugatishning nazariy va amaliy jihatlarini” tadqiq etish hamda ularning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda mazkur institutni takomillashtirishning yangicha metodologik asoslarini yaratish muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, respublikamizda jinoyat-protsessual munosabatlarda reabilitatsiya (D. Kamalxodjayev), jinoyat qonunlarining liberallashtirilishi jarayonida jinoiy javobgarlikdan ozod qilishni takomillashtirish muammolari (Sh. Berdiyev) mavzularida doktorlik dissertatsiyalari himoya qilingan. Xorijiy olimlardan Kristina Farkash [1, 132-b.] va Lilit Grigoryan [2, 144-b.] kabi mualliflar ham jinoyat ishini tugatish asoslari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

Oliy sudning ochiq statistik ma’lumotlariga yuzlanadigan bo‘lsak, sudlar tomonidan reabilitatsiya asoslariga ko‘ra oqlangan shaxslar 2021-yilda 932 nafarni, 2022-yilda 1010 nafarni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilda esa 1244 nafar shaxs oqlangan.

Material va metodlar

Reabilitatsiya asoslariga ko‘ra jinoyat ishini tugatish masalasi qonunchilikda belgilangan bo‘lsa-da, ushbu institutning mohiyati moddiy huquq normalari bilan bog‘liq ekanligi hamda amaliyotda yuzaga kelayotgan muammolar sababli ushbu tadqiqot ishida asosan qiyosiy-huquqiy, tahlil va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Shu bilan birga, maqolada kuzatish, umumlashtirish, induksiya va deduksiya metodlari qo‘llandi.

Tadqiqot natijalari

Jinoyat ishini tugatish asoslarini tasniflashda ilmiy jamoatchilik tomonidan eng ko‘p qo‘llanadigan usullardan biri ularni reabilitatsiya asoslariga ko‘ra hamda reabilitatsiya qilinmaydigan asoslarga ko‘ra tasniflashdir. Shunga ko‘ra, reabilitatsiya qilinadigan va reabilitatsiya qilinmaydigan asoslarga ko‘ra jinoyat ishini tugatish asoslarini, ularning mohiyatini hamda bugungi kunda ularni qo‘llash bilan bog‘liq nazariy va huquqni qo‘llash amaliyotidagi muammolarni alohida va batafsil tahlil qilamiz.

Reabilitatsiya qilinadigan asoslarga ko‘ra jinoyat ishini tugatish masalasini ilmiy jihatdan tahlil qilishdan oldin reabilitatsiya tushunchasiga qisqacha to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiq. Zero, bu orqali tadqiqot reabilitatsiya qilinadigan asoslarga ko‘ra jinoyat ishini tugatish asoslarining tub mohiyatini anglab yetish mumkin bo‘ladi.

Mahalliy olimlarimizdan T. Tadjiyevning fikricha, reabilitatsiya vakolatli huquqni muhofaza qiluvchi organning jinoyat-protsessual hujjatda ifodalangan va jinoyat hodisasi yoki jinoyat tarkibi yo‘qligi yoki aniqlanmagani yoki mazkur shaxsning jinoyat sodir etishdagi ishtiroki aniqlanmagani haqida xulosasini qayd qiluvchi qaroridir [3, 15-b.].

O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudining sudyasi, tadqiqotchi A. Sattorov esa T. Tadjiyevning yuqoridagi qarashlariga qo‘shilmagan holda reabilitatsiya jarayoni bilan bog‘liq huquqiy munosabatlar jinoyat ishi tugatilganidan yoki oqlov hukmidan so‘ng ham davom etishini alohida ta’kidlagan holda yuqoridagicha qarash reabilitatsiya tushunchasini tor ma’noda tushunishga sabab bo‘ladi deb hisoblaydi.

Uning fikricha, reabilitatsiyani nafaqat asossiz jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxslarga nisbatan jinoyat ishining tugatilishi yoki oqlanishi orqali reabilitatsiya huquqini e’tirof etish, balki jinoiy javobgarlikka tortish, ozodlikdan mahrum etish, aybsiz shaxslarni nohaq hukm qilish bilan bog‘liq barcha buzilgan huquqlarni tiklash jarayoni sifatida tushunish maqsadga muvofiq [4, 338–343-b.].

Fikrimizcha, A. Sattorovning yuqorida keltirilgan qarashlari o‘rinli. Zero, reabilitatsiya tushunchasini T. Tadjiyev ta’kidlaganidek tegishlicha “qaror” sifatida ifodalash maqsadga muvofiq emas. Sababi, reabilitatsiya

aslida bunday qaror qabul qilingandan keyin amalga oshiriladigan harakatlarni yoxud A. Sattorov ta'kidlaganidek, "buzilgan huquqlarni tiklash jarayoni"ni ham o'z ichiga oladi.

Bizningcha, reabilitatsiya tushunchasiga nisbatan "asossiz yoxud qonunga xilof ravishda jinoiy ta'qib amalga oshirilgan shaxsga yetkazilgan mulkiy zararni undirish hamda ma'naviy ziyon oqibatlarini bartaraf etish orqali uning buzilgan huquqlarini tiklash jarayoni" sifatida mualliflik ta'rifini berish maqsadga muvofiq.

Tadqiqot natijalari tahlili

Bevosita reabilitatsiya asoslariga ko'ra jinoyat ishini tugatish masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, mazkur institut uzoq tarixga ega bo'lgani sababli ushbu masalada soha olimlari tomonidan amalga oshirilgan ko'plab ilmiy tadqiqotlarni ko'rishimiz mumkin.

A. Averchenko va K. Ismailovalarning ta'kidlashicha, jinoyat ishining reabilitatsiya asoslariga ko'ra tugatilishi shaxsning jinoiy hodisaga aloqador emasligi va uning oqlanganini tan olishni bildiradi. Buning natijasida shaxsda reabilitatsiyaga nisbatan huquq paydo bo'ladi [5, 80-b.].

Shuningdek, mazkur masalaga oid ilmiy tadqiqotlarda reabilitatsiya qilishga olib keladigan jinoyat ishini tugatish asoslarini qayta ko'rib chiqishga oid qarashlar ham ilgari surilganini ko'rishimiz mumkin. Xususan, T. Moskalkovaning fikricha, jinoyat ishni tugatishda reabilitatsiya asoslarini boshqacha shaklda belgilash lozim. Uning ta'kidlashicha, jinoyat hodisasi va jinoyat tarkibi yo'qligi, ayblanuvchining jinoyat sodir etishga aloqador emasligi kabilarni boshqa bir yagona asosga – shaxsning jinoyat sodir etishda aybsizligiga almashtirish maqsadga muvofiq [6, 116-b.].

Y. Vertennikova ham mazkur fikrni qo'llab-quvvatlagan holda reabilitatsiya asoslariga ko'ra jinoyat ishini tugatish asoslarining barchasi umumiy xususiyatga egaligi aybning mavjud emasligi bilan ajralib turishini ta'kidlaydi. Mazkur olimning fikricha, muayyan shaxsga nisbatan asossiz jinoiy ta'qib amalga oshirilgan va jinoyat sodir etishda ayblangan holatlarda davlat mazkur shaxs oldida qarzdor hisoblanadi [7, 90-b.].

Fikrimizcha, yuqorida keltirilgan qarashlarni rad etish mumkin emas. Sababi, haqiqatan ham hech qanday aybi bo'lmay turib jinoiy ta'qibga uchragan shaxs o'ziga nisbatan yetkazilgan moddiy va nomoddiy zararni bartaraf etishga haqli bo'lishi lozim. Shu jihatdan olib qaraganda, jinoyat ishini tugatish asoslarini reabilitatsiya qilinadigan va reabilitatsiya qilinmaydigan asoslarga ajratishda mazkur xususiyatlarga alohida e'tibor berish lozim.

Milliy qonunchiligimizda reabilitatsiya asoslariga ko'ra jinoyat ishini tugatishning uchta asosi belgilangan. Zero, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 83-moddasiga muvofiq, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi quyidagi hollarda aybsiz deb topiladi va reabilitatsiya etilishi lozim:

1) ish qo'zg'atilgan va tergov harakatlari yoki sud muhokamasi o'tkazilgan ish bo'yicha jinoiy hodisa yuz bermagan bo'lsa;

2) uning qilmishida jinoyat tarkibi bo'lmasa;

3) uning sodir etilgan jinoyatga daxli bo'lmasa.

Mazkur asoslarni alohida tahlil qiladigan bo'lsak, avvalo, jinoiy hodisa yuz bermagani asosi bo'yicha jinoyat-protsessual huquqi ilm-fani sohasida turlicha qarashlar mavjud. Jumladan, B. Bezlipkinning fikricha, huquqbuzarlik faktining o'zi mavjud bo'lmagan hollarda jinoiy hodisa ham mavjud bo'lmaydi.

L. Karneyeva esa, "jinoyat hodisasi mavjud emasligi" tushunchasini "jinoyat ishi qo'zg'atilishiga asos bo'lgan hodisa yoki qilmishning mavjud emasligi" jumlasi bilan almashtirish kerak, deb hisoblaydi [8, 53-b.].

A. Libus va G. Reznik kabi protsessualist olimlar esa, aksincha, jinoyat ishini mazkur asosga ko'ra tugatishda "hodisa" tushunchas-

ini foydalanishdan chiqarib tashlashni va uning o‘rniga ayblov uchun asos bo‘lgan “qilmish” tushunchasini ishlatishni hamda shuning asosida shaxsni oqlash yoki jinoyat ishini tugatish kerakligini ta’kidlashadi [9, 9-b.].

Boshqa bir guruh olimlar, xususan, N. Petuxov hamda G. Zagarskiylarning fikricha esa, “jinoyat hodisasining mavjud emasligi” tushunchasi muayyan bir voqea jinoyat sifatida noto‘g‘ri talqin qilinganini anglatadi [10, 51-b.].

Fikrimizcha, yuqorida keltirib o‘tilgan qarashlardan L. Karneyeva tomonidan bildirilgan ta’rif biz muhokama qilayotgan tushunchaning mazmunini aniqroq ochib bergan. Boshqa ta’riflar, xususan, muayyan hodisa jinoyat sifatida noto‘g‘ri talqin qilingani biz ko‘rib chiqayotgan tushunchaga emas, balki jinoyat tarkibi mavjud emasligi tushunchasiga yaqinroq hisoblanadi.

Shu bilan birga, amalga oshirilgan tahlillarimiz davomida shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, jinoyat-protsessual ilm-fanida soha olimlari tomonidan jinoiy hodisa yuz bermagani asosiga ko‘ra ish yuritishni tugatish faqatgina jinoyat ishi qo‘zg‘atilganidan keyin amalga oshishi lozimligi to‘g‘risidagi qarashlarni uchratmaymiz. Aniqroq aytganda, deyarli barcha olimlar tomonidan bildirilgan fikrlarda jinoiy hodisa yuz bermagani sababli jinoyat ishini tugatish jinoyat protsessining muayyan bosqichi bilan chegaralab qo‘yilmasdan, protsessning har qanday bosqichi uchun umumiy bo‘lgan institut sifatida bayon etilgan.

Biroq milliy qonunchiligimizda jinoiy hodisa yuz bermagani asosi bilan ish yuritishni tugatish faqatgina “ish qo‘zg‘atilgan va tergov harakatlari yoki sud muhokamasi o‘tkazilgan ish bo‘yicha” amalga oshirilishi belgilangan. Bu orqali qonun chiqaruvchi tergovga qadar tekshiruv bosqichida bo‘lgan ishlar (materiallar) mazkur asosga ko‘ra tugatilishi mumkin emasligini belgilab bergan.

Shunday bo‘lsa-da, huquqni qo‘llash amaliyoti Jinoyat-protsessual kodeksi 83-moddasi 1-qismi 1-bandidan tergovga qadar tekshiruv bosqichida bo‘lgan ishlar bo‘yicha ish yuritishni tamomlashda ham foydalanib kelishmoqda.

Bizningcha, yuqorida keltirilganidek huquqni qo‘llash amaliyoti hamda amaldagi qonunchilik o‘rtasidagi o‘zaro ziddiyatga O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 6-sentabrdagi O‘RQ-442-sonli qonuni bilan kiritilgan o‘zgartirishlarning to‘la-to‘kis emasligi hamda har tomonlama o‘ylanmagani sabab bo‘lgan. Zero, mazkur qonun bilan jinoyat-protsessual qonunchilikka jinoyat ishini qo‘zg‘atish uchun yetarli sabab va asos borligini aniqlash uchun mo‘ljallangan yangi institut – tergovga qadar tekshiruv instituti joriy etilgan bo‘lsa-da, JPK 83-moddasi o‘sha paytdagi yangi qonunchilikka moslashtirilmagan.

Shu sababli, fikrimizcha, mazkur norma mazmunini tergovga qadar tekshiruv bosqichini ham inobatga olgan holda qayta ko‘rib chiqish va tahrirlash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Reabilitatsiya asoslariga ko‘ra jinoyat ishini tugatishdagi navbatdagi asos –qilmishda jinoyat tarkibining mavjud emasligidir. Milliy olimlarimizdan M. Rustamboyevning fikricha, jinoyat tarkibi deganda aniq ijtimoiy xavfli qilmishni jinoyat deb baholash uchun zarur bo‘lgan obyektiv va subyektiv elementlar yig‘indisi tushuniladi. Bu elementlar jinoyat qonunida mustahkamlangani bois u yoki bu ijtimoiy xavfli qilmishning jinoyat deb baholanmog‘i uchun zarur hisoblanadi [11, 137-b.].

Jinoyat tarkibining jinoyat obyekti, obyektiv tomoni, subyekti va subyektiv tomonini o‘z ichiga olishi deyarli barcha olimlar tomonidan to‘liq qo‘llab-quvvatlangani sababli mazkur masalaga batafsil to‘xtalib o‘tirmaymiz. Biroq tadqiqotimiz uchun muhim bo‘lgan jinoyat tarkibining elementlaridan biri jinoyat subyekti masalasiga to‘xtalib o‘tish lozim bo‘ladi.

M. Usmonaliyevning qayd etishicha, jinoyat subyekti jinoyat qonunida nazarda

E-ISSN 2181-1148
ISSN 2181-919X

tutilgan yoshga to‘lgan, aqli raso jismoniy shaxsdir [12, 106-b.]. Ya’ni jinoyat subyekti yoshiga to‘lmagan shaxs tomonidan jinoyat sodir etilganda jinoyat tarkibining elementlaridan biri – jinoyat subyekti elementi mavjud bo‘lmaydi.

Mazkur sohada amaldagi qonunchilikda mavjud bo‘lgan muammolardan biri shundaki, Jinoyat-protsessual kodeksi 83-moddasi 1-qismi 2-bandi (qilmishida jinoyat tarkibi mavjud emasligi) o‘z mazmuni jihatidan ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan paytda jinoiy javobgarlikka tortish mumkin bo‘lgan yoshga to‘lmagan shaxslar tomonidan sodir etilgan qilmishlarni ham qamrab oladi. Shu bilan birga, mazkur holatlar uchun kodeksning 84-moddasi 1-qismi 7-moddasida ham ish yuritishni tugatishning alohida asosi belgilab qo‘yilgan.

Fikrimizcha, bu holat huquqni qo‘llash amaliyotida jiddiy muammolarni yuzaga keltirmasa-da, amaldagi jinoyat-protsessual qonunchilikda qarama-qarshiliklarni yuzaga keltiradi. Shu sababli Jinoyat-protsessual kodeksi 83-moddasi 1-qismi 2-bandi mazmunini yanada aniqlashtirgan holda 84-moddasi 1-qismi 7-moddasida nazarda tutilgan holatlar mazkur normadan mustasnoligi, ya’ni ushbu norma bilan qamrab olinmasligini belgilash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Jinoyat-protsessual huquqi ilm-fanida shaxsning sodir etilgan jinoyatga daxli bo‘lmaganligi sababli ish yuritishni tugatish masalasida jiddiy bahs-munozaralar va muammolarni kuzatmaymiz. Shu sababli mazkur masalaga batafsil to‘xtalib o‘tishni joiz topmadik.

Umuman olganda, protsessualist olimlar tomonidan bildirilgan ilmiy qarashlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, milliy qonunchiligimizda belgilangan reabilitatsiya asoslariga ko‘ra jinoyat ishini tugatish asoslarining yuqoridagicha ro‘yxati qisqa va tor ekanligi haqida xulosaga kelishimiz mumkin. Jumladan, A. Averchenko va K. Ismailovalar reabilitatsiya asoslariga ko‘ra jinoyat ishi tugatilishi lozim bo‘lgan holat (asos)lar sifatida quyidagilarni keltirishadi:

1) jinoyat hodisasining yo‘qligi;

2) qilmishda jinoyat tarkibining yo‘qligi;

3) gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchining jinoyat sodir etishda ishtirok etmagani;

4) jinoyat ishi jabrlanuvchining arizasi bilan qo‘zg‘atiladigan holatlarda bunday arizaning mavjud emasligi;

5) immunitetga ega bo‘lgan shaxsga nisbatan jinoyat ishini qo‘zg‘atish uchun tegishli organ tomonidan ruxsat berish rad etilgani;

6) gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchiga nisbatan xuddi shu ayblov bo‘yicha qonuniy kuchga kirgan sud qarori yoki jinoyat ishini tugatish to‘g‘risidagi qarorning mavjudligi [5, 80-b.].

Y. Belousova ham reabilitatsiya asoslariga ko‘ra ish yuritishni tugatishning milliy qonunchiligimizdan farq qiluvchi keng ro‘yxatini keltirgan holda ushbu asoslarni quyidagicha uchta guruhga bo‘lgan holda ifodalaydi [13, 177-b.]:

1) jinoyat-protsessual xarakterdagi yuridik faktlar bilan bog‘liq asoslar:

– shaxsning jinoyat sodir etishda ishtirok etmagani;

– jinoyat ishi faqatgina jabrlanuvchining arizasi bilan qo‘zg‘atiladigan ishlar bo‘yicha bunday arizaning mavjud emasligi;

– shaxsga nisbatan xuddi shu ayblov bo‘yicha qonuniy kuchga kirgan sud qarori yoki jinoyat ishini tugatish to‘g‘risidagi qarorning mavjudligi;

2) jinoyat tarkibi va jinoiy hodisa belgilarini aniqlash bilan bog‘liq asoslar:

– jinoyat hodisasi mavjud emasligi;

– jinoyat tarkibi mavjud emasligi;

3) xizmat immuniteti instituti bilan bog‘liq asoslar;

– immunitetga ega bo‘lgan shaxsga nisbatan jinoyat ishini qo‘zg‘atish uchun tegishli organ tomonidan beriladigan ruxsatning mavjud emasligi;

– vakolatli organ tomonidan sobiq davlat rahbarini daxlsizlik huquqidan mahrum qilishga oid so‘rovga rad javobini berishi.

O. Chasovnikova ham Y. Belousova bilan deyarli bir xil qarashni ilgari surgan holda reabilitatsiya asoslariga ko‘ra ish yuritishni tugatish asoslarini yuqorida keltirilgan uchta guruhga bo‘lishni qo‘llab-quvvatlaydi [14, 92–93-b.].

Yuqoridagilardan ko‘rishimiz mumkinki, milliy qonunchiligimizda jinoyat ishini tugatish uchun asos sifatida belgilangan bo‘lsada, biroq reabilitatsiya oqibatlarini keltirib chiqarmaydigan asoslar olimlar tomonidan reabilitatsiya qilinadigan asos sifatida e’tirof etilgan. Buning sababini anglash uchun mazkur asoslarni quyida birma-bir ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq.

Ish faqat jabrlanuvchining shikoyati bilan qo‘zg‘atiladigan hollarda uning shikoyati bo‘lmasa, ish yuritish tugatilishi lozimligi to‘g‘risidagi norma O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 84-moddasi 1-qismi 6-bandida belgilab qo‘yilgan bo‘lib, yuqorida qayd etib o‘tilganidek mazkur asosga ko‘ra tugatilgan ishlar reabilitatsiya oqibatlarini keltirib chiqarmaydi yoki reabilitatsiyaga sabab bo‘lmaydi.

M. Lavnov esa yuqorida keltirib o‘tilgan olimlar singari mazkur asosga ko‘ra tugatiladigan ishlar (shaxslar) reabilitatsiya huquqiga ega bo‘lishini ta’kidlaydi. Uning fikricha, ish faqat jabrlanuvchining shikoyati bilan qo‘zg‘atiladigan hollarda uning shikoyati bo‘lmasa, ish yuritish tugatiladi va natijada shaxsda reabilitatsiya huquqi paydo bo‘ladi. Mazkur olim bu kabi vaziyatlarda shaxs aybdor bo‘lishi ehtimoli yo‘q emasligini, aniqrog‘i, haqiqatan ham jinoyat sodir etgan bo‘lishi mumkinligini ham tan oladi. Biroq M. Lavnovning qayd etishicha, ushbu holatda reabilitatsiya huquqining ta’minlanishi uchun eng asosiy sabablardan biri jinoiy ta’qibning yetarli shartlarsiz boshlanishi hisoblanadi [15, 91-b.].

Bizningcha, yuqorida keltirilgan fikr mutlaqo to‘g‘ri. Sababi, qonunchilik faqatgina jabrlanuvchining arizasi bilan qo‘zg‘atiladigan jinoyatlar ro‘yxatini belgilash orqali mazkur holatlar bo‘yicha aniq shartni – ariza yoxud shikoyatning mavjudligini belgilaydi. Bunday shartga rioya qilinmagan holda, ya’ni jabrlanuvchi arizasi yoxud shikoyati bo‘lmagani holda muayyan shaxsga nisbatan jinoiy ta’qib amalga oshirilishi ham o‘z-o‘zidan asossiz hisoblanadi. Shu sababli ushbu vaziyatlarda jinoiy ta’qib natijasida zarar yetkazilgan shaxsga davlat tomonidan reabilitatsiya kafolatlanishi lozim.

Bundan tashqari, bizningcha, jinoyat ishini qo‘zg‘atish jabrlanuvchining shikoyatini talab etmaydigan hollarda ish qo‘zg‘atilgan, biroq keyinchalik jinoyat jabrlanuvchining shikoyatini talab etadigan moddaga qayta kvalifikatsiya qilingan holatlarda ham, agarda jabrlanuvchi shikoyat berishdan bosh tortsa, jinoyat ishini yuritish mazkur asosga ko‘ra tugatilishi hamda jinoiy ta’qib ostidagi shaxsga nisbatan reabilitatsiya huquqi ta’minlanmog‘i lozim. Zero, ushbu holatda ham ish yuritishning qonunda belgilangan talablari bajarilmagani (shikoyatning yo‘qligi) sababli jinoiy ta’qib ostidagi shaxs uchun davlat tomonidan qo‘shimcha kafolat (reabilitatsiya huquqi) ta’minlanishi uchun zaruriyat yuzaga keladi.

Navbatdagi asosni tahlil qiladigan bo‘lsak, amaldagi qonunchiligimizda, xususan, Jinoyat-protsessual kodeksining 84-moddasi 1-qismi 5-bandida shaxsga nisbatan aynan shu ayblov bo‘yicha ishni tugatish haqida sudning qonuniy kuchga kirgan ajrimi (qarori) yoki vakolatli mansabdor shaxsning jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad etish yoxud ishni tugatish haqida bekor qilinmagan qarori bo‘lsa, ish yuritish tugatilishi belgilangan. Biroq mazkur asosga ko‘ra tugatilgan ishlar ham reabilitatsiya huquqini yuzaga keltirmaydi.

M. Lavnov mazkur asosga ko‘ra jinoyat ishini tugatish reabilitatsiya huquqini yuzaga keltirishi haqida fikr bildirib, o‘z qarashini ushbu holatlarda qonunda belgilangan talablarga rioya qilinmagani va jinoiy ta’qib takroran amalga oshirilgani bilan asoslaydi [15, 91-b.].

Bizningcha, mazkur qarash to‘g‘ri. Zero, ilgari muayyan qilmish uchun jinoiy ta’qib amalga oshirilgan va tegishli qaror (hukm, ajrim) qabul qilingan va u hali bekor qilinmagan bo‘la turib, aynan shu qilmish bo‘yicha jinoiy ta’qibning amalga oshirilishi xuddi JPK 83-moddasi 1-qismi 1-bandida nazarda tutilgan va reabilitatsiyaga sabab bo‘luvchi “jinoiy hodisa yuz bermagani” asosi bilan umumiy xususiyatlarga ega. Sababi, bunda ilgari sodir etilgan qilmish uchun jinoiy ta’qib amalga oshirilganini inobatga olganda, “yangi” jinoyat hodisasi yuz bermagan hisoblanadi. Shu sababli ham Jinoyat-protsessual kodeksining 84-moddasi 1-qismi 5-bandida nazarda tutilgan asosni kodeksning 83-moddasiga o‘tkazish masalasini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq.

Olimlar tomonidan e’tirof etilgan navbatdagi ish yuritish asosi muayyan immunitetga ega bo‘lgan shaxslarga nisbatan jinoyat ishini qo‘zg‘atishga yoxud jinoiy ta’qibni amalga oshirishga ruxsat etilmagan taqdirda ish yuritishni tugatish bilan bog‘liq.

A. Smirning fikricha, immunitetga ega bo‘lgan shaxslarga nisbatan jinoyat ishini qo‘zg‘atish yoki jinoiy ta’qibni amalga oshirish uchun tegishli organ tomonidan ruxsat berilmagan holatlarda ish yuritishni tugatishning alohida asosi qonunchilikda belgilanishi lozim. Aks holda, qonunchilikdagi bunday bo‘shliq ish yuritishni tugatishga imkon bermasdan, bunday ishlarning to‘xtatib turilishiga sabab bo‘lishi mumkin [16, 92–93-b.].

Bizningcha, mazkur qarash to‘g‘ri bo‘lib, qonunchilikda muayyan toifa shaxslarga nisbatan yoxud muayyan jinoyatlar bo‘yicha jinoiy ta’qibni amalga oshirishda alohida ruxsat olish belgilangan normalar mavjud bo‘lsa, o‘z-o‘zidan qonunchilikda bunday ruxsat berilmagan taqdirda ish yuritishni tugatish asosi ham belgilanishi uchun zaruriyat paydo bo‘ladi.

Qayd etish kerakki, amaldagi qonunchiligimizda faqat bir holat bo‘yicha jinoyat ishini qo‘zg‘atish uchun ruxsat olish lozimligi belgilangan. Xususan, Jinoyat-protsessual kodeksi 331-moddasi 5-qismiga ko‘ra, tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan faktlar bo‘yicha tadbirkorlik subyektiga nisbatan jinoyat ishini qo‘zg‘atishga faqat Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokurorining, viloyatlar va Toshkent shahri prokurorlarining roziligi bilan yoxud O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori yoki uning o‘rinbosarining roziligi bilan yo‘l qo‘yiladi.

Biroq amaldagi qonunchilik mazkur toifaga kiruvchi ishlar bo‘yicha tergovga qadar tekshiruv olib borilgan, lekin vakolatli prokuror tomonidan rozilik berilmagan holatlarda jinoyat ishini aynan qaysi asosga ko‘ra tugatish mumkinligini aniq belgilab bermaydi.

Fikrimizcha, mazkur holat qonunchilikda bo‘shliqni yuzaga keltirib, huquqni qo‘llash amaliyotida muammolarga sabab bo‘ladi. Shu sababli mazkur bo‘shliqni bartaraf etish va ushbu asosni aynan reabilitatsiyaga sabab bo‘luvchi asos sifatida kodeksning 83-moddasiga kiritish lozim bo‘ladi. Sababi, mazkur institut yuqorida tahlil qilingan jabrlanuvchining shikoyati mavjud emasligiga ko‘ra ish yuritishni tugatish kabi xususiyatlarga ega. Ya’ni bunda prokuror davlat manfaatlarini himoya qila turib, muayyan ma’noda “jabrlanuvchi” rolini bajaradi hamda uning jinoiy ta’qib uchun rozilik berishdan bosh tortishi jabrlanuvchi tomonidan shikoyat berishdan bosh tortish kabi oqibatlarni keltirib chiqarishi maqsadga muvofiq.

Xulosa

Tahlil natijalari yuzasidan reabilitatsiya asoslariga ko‘ra jinoyat ishini tugatishni takomillashtirish maqsadida quyidagilar taklif etiladi:

birinchidan, Jinoyat-protsessual kodeksi 83-moddasi 1-qismi 2-bandi (qilmishida jinoyat tarkibi mavjud emasligi) o‘z mazmuni jihatidan ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan paytda jinoiy javobgarlikka tortish mumkin bo‘lgan yoshga to‘lmagan shaxslar tomonidan sodir etilgan qilmishlarni ham qamrab oladi.

Shu bilan birga, mazkur holatlar uchun 84-modda 1-qismi 7-bandida ham ish yuritishni tugatishning alohida asosi belgilab qo‘yilgan. Shu sababli Jinoyat-protsessual kodeksi 83-moddasi 1-qismi 2-bandi mazmunini yanada aniqlashtirish. Bunda 84-modda 1-qismining 7-bandida nazarda tutilgan holatlarda shaxs jinoiy javobgarlikka tortish yoshiga yetmagan bo‘lsa, jinoyat ishi reabilitatsiya asoslariga ko‘ra tugatilmaydi.

ikkinchidan, amaldagi qonunchilikka ko‘ra, ish faqat jabrlanuvchining shikoyati bilan qo‘zg‘atiladigan hollarda uning shikoyati bo‘lmasa, ish yuritish tugatilishi reabilitatsiya oqibatlarini keltirib chiqarmaydi yoki reabilitatsiyaga sabab bo‘lmaydi. Biroq ushbu holatda zaruriy shart (ariza yoxud shikoyatning mavjudligi)ga amal qilinmagani holda muayyan shaxsga nisbatan jinoiy ta’qib amalga oshirilishi ham o‘z-o‘zidan asossiz hisoblanadi. Shu sababli ushbu vaziyatlarda jinoiy ta’qib natijasida zarar yetkazilgan shaxsga davlat tomonidan reabilitatsiya kafolatlanishi lozim.

uchinchidan, Jinoyat-protsessual kodeksining 84-moddasi 1-qismi 5-bandida nazarda tutilgan asoslar yuzaga kelganda “yangi” jinoyat hodisasi yuz bermagan hisoblanadi. Shu sababli ham mazkur asosga ko‘ra ish yuritish tugatilganda shaxsda reabilitatsiyaga nisbatan huquq ta’minlanishi lozim.

to‘rtinchidan, qonunchilikda muayyan toifa shaxslarga nisbatan yoxud muayyan jinoyatlar bo‘yicha jinoiy ta’qibni amalga oshirishda alohida ruxsat olish belgilangan normalar mavjud bo‘lsa, o‘z-o‘zidan qonunchilikda bunday ruxsat berilmagan taqdirda ish yuritishni tugatish asosi ham belgilanishi uchun zaruriyat paydo bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, reabilitatsiya asoslariga ko‘ra jinoyat ishini tugatish shaxs huquqlarining kafolatini ta’minlashga xizmat qiladi. Chunki bugungi kunda zamonaviy yurisprudensiya talablari asosida ilg‘or xalqaro standartlar va xorijiy amaliyotni hisobga olgan holda reabilitatsiya asoslariga ko‘ra jinoyat ishini tugatish tartibini yanada takomillashtirish fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish bilan bir qatorda, amaliyotda yuzaga kelayotgan muammolarga yechim topishga ham xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Farkas K. Möglichkeiten der beschleunigung und vereinfachung des verfahrens im deutschen strafprozessrecht [Possibilities for accelerating and simplifying the procedure in German criminal procedure law]. (In German). 2016. p. 132. Available at: http://drkovacstimea.hu/pdf/EQUAL_Directives.pdf. (accessed 15.08.2016).

2. Grigoryan L. Criminal Matters – Report Crimes of an Armed Robbery. *Victim’s Recourse and Remedies Prevention*, 2006, 144 p.

3. Tadzhiyev T.T. Problemy reabilitatsii v sovetskom ugolovnom protsesse. [Problems of rehabilitation in Soviet criminal proceedings]. Abstract of Doctoral Dissertation. Tashkent, 1991, p. 15.

4. Sattorov, A. 2021. Analysis of the essence and legal basis of rehabilitation in criminal cases. *Society and Innovation,* 2021, June, vol. 2 (5/S), pp. 338–343. DOI: 10.47689/2181-1415-vol2-iss5/S-pp338-343

5. Averchenko A., Ismailova K. Prekrashheniye ugolovnogo dela i ugolovnogo presledovaniya po reabilitiruyushhim osnovaniyam na stadii predvaritelnogo sledstviya [Termination of a criminal case and criminal prosecution on rehabilitating grounds at the stage of preliminary investigation]. *Problems of Science*, 2023, no. 6 (80).

6. Moskalkova T.N. Uvazheniye chesti i dostoinstva lichnosti kak printsip ugolovnogo protsessa [Respect for the honor and dignity of the individual as a principle of criminal proceedings]. PhD thesis. Moscow, 1987, p. 116.

7. Veretennikova Ye.V. Reabilitiruyushhiye osnovaniya v ugolovnom sudoproizvodstve Rossii [Rehabilitative grounds in criminal proceedings in Russia]. *Siberian Legal Bulletin*, 2012, no. 1.

8. Karneyeva L.M. Prekrashheniye ugolovnogo dela za otsutstviyem sostava i sobytiya prestupleniya [Termination of a criminal case due to the absence of elements and events of the crime]. *Soc. Legalit,* 1970, no. 5, p. 53.

9. Libus A., Reznik G. Osnovaniya opravdaniya v ugolovnom protsesse [Grounds for justification in criminal proceedings]. *Sov. Justice,* 1977, no. 9, p. 9.

10. Kommentariy k Ugolovno-protsessualnomu kodeksu Rossiyskoy Federatsii. Postateynyy [Commentary on the Criminal Procedure Code of the Russian Federation. Article by article]. N.A. Petukhov, G.I. Zagorsky (Eds.). Moscow, EKMOS Publ., 2002, p. 51.

11. Rustambayev M.X. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi [Course of criminal law of the Republic of Uzbekistan]. Vol. 1. Doctrine of crime. 2nd ed., supplem. and revised. Tashkent, Military-technical institute of the National Guard of the Republic of Uzbekistan, 2018, p. 137.

12. Usmonaliyev M.M. Jinoyat tarkibi [Criminal composition]. Tashkent, 2008, p. 106. Available at: https://library-tsul.uz/zhinoyat-tarkibi-usmonaliev-m-2006-2

13. Belousova Ye.A. Prekrashheniye ugolovnogo presledovaniya v stadii predvaritelnogo rassledovaniya [Termination of criminal prosecution at the stage of preliminary investigation]. PhD thesis. St. Petersburg, 2004, p. 177.

14. Chasovnikova O.G. Prekrashheniye ugolovnogo presledovaniya po reabilitiruyushhim osnovaniyam [Termination of criminal prosecution on rehabilitative grounds: abstract of thesis]. PhD thesis. St. Petersburg, 2013, p. 26.

15. Lavnov M.A. Institut prekrashheniya ugolovnogo dela v sisteme ugolovno-protsessualnogo prava i pravoprimenitelnoy praktike [Institute for termination of criminal proceedings in the system of criminal procedural law and law enforcement practice]. PhD thesis. Saratov, 2015, p. 91.

16. Smyr A.D. Modernizatsiya osnovaniy prekrashheniya ugolovnogo dela i ugolovnogo presledovaniya v zakonodatelstve Rossiyskoy Federatsii i Respubliki Abkhaziya [Modernization of the grounds for termination of a criminal case and criminal prosecution in the legislation of the Russian Federation and the Republic of Abkhazia]. PhD thesis. Volgograd, 2019, pp. 92–93.

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI
ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК
REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

2024-yil 1-son

VOLUME 8 / ISSUE 1 / 2024

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2024.8.1.

BOSH MUHARRIR:
Rustambekov Islambek Rustambekovich
Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.v.b., y.f.d., professor

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI:
Xodjayev Baxshillo Kamolovich
Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, y.f.d., professor

Mas’ul muharrir: O. Choriyev
Muharrirlar: Y. Yarmolik, Y. Mahmudov, E. Mustafayev
Musahhih: M. Sharifova
Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:
100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: review.tsul.uz
E-mail: reviewjournal@tsul.uz
Obuna indeksi: 1385.

Jurnal 26.03.2024-yilda tipografiyaga topshirildi. Qog‘oz bichimi: A4.
Shartli 12,32 b.t. Adadi: 100. Buyurtma raqami: 38.
TDYU tipografiyasida chop etildi.